NAQSHBANDIYLIK TARIQATI NAMOYANDALARI (XV-XIX asrlar Zarafshon vohasi misolida)

ПРЕДСТАВИТЕЛИ НАКШБАНДИЙСКОГО ТАРИКАТА (на примере Зарафшанской долины XV – XIX вв.)

REPRESENTATIVES OF THE NASHBANDI SECT (In the example of the Zarafshan oasis of the 15th-19th centuries)

AMONOV Mekhrojiddin Uzbekovich,
Department of Imam Bukhari International Scientific Research Center under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, PhD.
E-mail: mirzomerojiddin@gmail.com
141306. Khoja Ismail town of Payariq district. Samarkand, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2024/3/3

Annotatsiya: *Maqolada XV-XIX asrlarda Zarafshon vohasi naqshbandiya tariqati namoyandalari tarixiga oid yozma manbalar tadqiq etilgan. Tariqatda faoliyat ko‘rsatgan muayyan shayx-murshidning nasabi, ustozlari haqida, tug‘ilgan yoki vafot etgan yili haqida aniq ma’lumot saqlangan. Bu ma’lumotlar manbalarda keltirilgan ma’lumotlarni bevosita to‘ldiradi. Bu tariqatning mazkur hududda yetakchi tariqatga aylanishi XV-XIX asrlarda yashab o‘tgan tariqat peshvolari Xoja Alouddin Attor, Xoja Ahror Valiy, Maxdumi A’zam Dahbediy, Muhammad Husayn kabi tariqat namoyandalari nomi bilan bog‘liq. Afsuski, ularning hayoti va ma’naviy merosi, naqshbandiya tariqatidagi faoliyati hanuzgacha alohida tadqiqot mavzusi sifatida to‘liq o‘rganilmagan.*

Ushbu maqolada nashqbandiylik tariqat tarixida nomi hali hanuz yozma manbalarda qolayotgan Alouddin Muhammad Buxoriy, Domla Mir Shoh Samarqandiy, Abdurahmon bek, Aflotun Buxoriy, Domla Hakimbek Buxoriy, Muhammad Yusuf xoja va Muhammad Yunus xoja Vobkandiy, Ibrohim xoja Buxoriy, Eshon Shokir xoja Sug‘onchiy, Abdurahim xoja Ofarinkentiy kabi tariqat namoyandalari hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlar tadqiq etilgan. Naqshbandiya tariqatiga yozma manbalarni o‘rganish hanuzgacha noma’lum qator axloqiy, ma’naviy va nazariy masalalarni ochiqlashga yordam beradi. O‘zbekiston hududidagi turli tarixiy yozma manbalarda saqlanib kelayotgan bitiklar tarixiy manba sifatida o‘tmishning noma’lum jihatlarini ochib berib, islom tarixi va manbashunosligi, xronologiya kabi tarmoqlari uchun muhim materiallar taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: *Naqshband, mujaddidiya, Zarafshon, Dahbed, silsila, qo‘lyozma, irshodnoma, murshid, murid.*

Аннотация: *В статье исследуются письменные источники по истории представителей тариката Накшбанди Зарафшанского оазиса в XV-XIX веках. Сохранились точные сведения о родословной, учителях, годе рождения или смерти практически каждого конкретного шейха-муршида, работавшего в тарикате. Эта информация напрямую дополняет информацию, представленную в источниках. Превращение этого течения в ведущий тарикат в этом регионе связано с именами таких лидеров тариката, как Ходжа Алауддин Аттар, Ходжа Ахрор Вали, Махдуми Азам Дахбеди, Мухаммад Хусейн, жившие в XV-XIX веках. К сожалению, их жизнь и духовное наследие, их деятельность в ордене Накшбандийа до сих пор не изучены в полной мере в качестве отдельной тема исследования.*

В этой статье приводятся имена Алоуддина Мухаммада Бухари, Домлы Мир Шаха Самарканди, Абдурахмана Бека, Афлотуна Бухари, Домлы Хакимбека Бухари, Мухаммада Юсуфа Ходжи и Мухаммада Юнуса Ходжи Вобканди, Ибрагима Ходжи Бухари, Эшона Шакира Ходжи Сугончи, Абдурахима Ходжи, чьи имена приводятся еще в истории секты Нашкбанди, в письменных источниках, а также сведения о жизни и деятельности представителей ордена, таких как Офаринкенти. Изучение письменных источников ордена Накшбандийа помогает выявить ряд до сих пор неизвестных этических, духовных и теоретических вопросов. Надписи, сохранившиеся в различных исторических письменных источниках на территории Узбекистана, раскрывают неизвестные стороны прошлого как исторические источники и дают важный материал для таких отраслей, как исламская история и источниковедение, хронология.

Ключевые слова: Накшбанд, муджаддидийа, Зарафшан, Дахбед, силсила, рукопись, иршоднома, муршид, мюрид.

Annotation: *The article reveals information about the written sources on the history of representatives of the Naqshbandi sect of the Zarafshan oasis in the 15th-19th centuries. Exact information about the lineage, teachers, and year of birth or death of a particular shaykh-murshid who worked in the tariqat has been preserved. This information directly complements the information provided in the sources. The transformation of this sect into the leading sect in this region is connected with the names of sect leaders such as Khwaja Alauddin Attar, Khwaja Ahror Vali, Makhdumi Azam Dahbedi, Muhammad Husain, who lived in the 15th-19th centuries. Unfortunately, their life and spiritual heritage, their activities in the Naqshbandi order have not yet been fully studied as a separate research topic.*

Information about the life and activities of the representatives of the sect, whose names are still in the written sources of the history of naqshbandi sect, such as:

Alouddin Muhammad Bukhari, Domla Mir Shah Samarkandi, Abdurahman Bek, Aflotun Bukhari, Domla Hakimbek Bukhari, Muhammad Yusuf Khoja and Muhammad Yunus Khoja Vobkandi, Ibrahim Khoja Bukhari, Eshon Shakir Khoja Sugonchi, Abdurahim Khoja Ofarinketiy, has been researched. Studying the written sources of the Naqshbandiyya order helps to clarify a number of still unknown ethical, spiritual and theoretical issues. Inscriptions preserved in various historical written sources in the territory of Uzbekistan reveal unknown aspects of the past as historical sources and provide important materials for branches such as Islamic history and source studies, chronology.

Key words: *Naqshband, mujaddidiya, Zarafshan, Dahbed, manuscript, irshodnoma, teacher, follower(student).*

KIRISH

Naqshbandiya tariqati namoyandalari muayyan hududda faoliyat ko‘rsatibgina qolmay, balki ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy hayotda ham muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa, tariqat murshidlariga ixlos qo‘ygan mamlakat hukmdorlari va amaldorlarining qo‘llab-quvvatlashi natijasi o‘laroq, tariqat murshidlarining mavqei yanada mustahkamlanib borgan. Natijada o‘zlari istiqomat qilgan maskan obodonchiligi, yurt ravnaqi va rivoji uchun atrofidagi shogirdlaru ixlosmandlar ko‘magi bilan masjidu madrasalar, xonaqohu darveshxonalar tashkil etib, xalqning ijtimoiy-ma’naviy hayoti yaxshilanishiga turtki bo‘lgan.

TADQIQOT MAQSADI

XV-XIX asrlarda Zarafshon vohasi naqshbandiya tariqati namoyandalarining hayoti va faoliyatini ochib berishdan iborat.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida tavsiflash, umumlashtirish, taqqoslash, tizimlilik, tarixiy davrlashtirish, mikrotarixiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

MUHOKAMA

Naqshbandiylik ta’limoti asoschisi Bahouddin Naqshband 1389-yilda vafot etganidan so‘ng, bu ulkan tariqat yo‘lini davom ettirish mas’uliyati Mavlono Xoja Alouddin Attor zimmasiga tushadi.

Xoja Alouddin Attor asl ismi Muhammad ibn Muhammad Buxoriy bo‘lib [*Bu ma’lumot Abdurahmon Jomiyning “Nafahotul uns” asarida ham shu tarzda berilgan*] (Abdurahmon Jomiy, 253[a]-sahifa), asli Xorazm viloyatidandir. Nosiriddin Buxoriy “Tuhfatuz zoyirin” asarida “Tuhfatul ansob” asarida quyidagi shajarani taqdim etadi: “Sayyid Muhammad ibn Sayid Amir Muhammad Buxoriy ibn Sayid Abdulloh Zarbaxsh ibn Sayid Ahmad (Sayyid Ato nomi bilan mashhur) ibn Sayid Abu Bakr (Sayid Yahyo) ibn Sayid Qosim ibn Sayid Husayn ibn Sayid Muso ibn Sayid Abdulloh ibn Sayid Muhammad Shahid ibn Sayid Abdulaziz ibn Sayyid Ja’far ibn Sayid Abdulhaq ibn Sayyid Mujtabo ibn Sayid Muhammad kabir ibn Sayid Ibrohim Rizo ibn Imom Ali Muso Rizo” (Nosiriddin Buxoriy, 55-sahifa) orqali to‘rtinchi xalifa Hazrati Aliga yetadi. Demak, Alouddin Attor Sayyid Ota avlodlaridan biridir.

Alouddin Attorga oid ma’lumotlar Mavlono Ya’qub Charxiy, Saloh ibn Muborak, Muhammad Porso, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Faxruddin Ali Safiy kabi muallif asarlarida tarqoq holda uchraydi.

Abdurahmon Jomiy bergan ma’lumotga ko‘ra, Alouddin Attor 802/1400-yil 20 rajab/16-mart chorshanba kuni xufton namozi vaqtida vafot etgani va qabri Deh Navchag‘aniyondadir (Abdurahmon Jomiy, 254[b]-sahifa).

Alouddin Attor ilmiy faoliyatining muhim jihati shuki, u Bahouddin Naqshband haqida bitilgan asarlarning sababchisi va tartibga soluvchisi bo‘ldi. Xususan, Muhammad Porsoning mashhur “Risolai qudsiya” (“Pok kalimalarni o‘z ichiga olgan risola”), Muhammad Boqirning “Maqomoti Xoja Naqshband” (“Xoja Naqshband maqomlari”), Mavlono Ya’qub Charxiy “Risolai unsiya” (“Ilohiy mehr-muhabbat haqida risola”), Salohiddin ibn Muborakning “Anisut tolibin va umdatus solikin” risolasi (da 785/1383-yilda valiylar murshidi xoja Alouddin Attor xizmatiga kirganligini yozadi. O‘zi bevosita Hazrati Xojani ko‘rganini aytadi. Muallif asarni 785/1383-yilda yozishni boshlab, Alouddin Attor maslahat va xotiralariga tayangan. 791/1389-yili Bahouddin Naqshband vafotidan keyin asarni yozib tugatgan (Navro‘zova G., 2019:30) degan ma’lumotlarni qayd etadi) kabi asarlar Attor xizmati sabab dunyo yuzini ko‘rdi.

Alouddin Attor ustozi Bahouddin Naqshband vafotidan keyin tariqat masnadiga rahbarlik qilgan. Uni turli xil qarashlardan, ziddiyatli vaziyatlardan himoya qilgan. Tariqat tamoyillarini keng hudud bo‘ylab yoyilishi uchun katta hissa qo‘shgan. Bahouddin Naqshband va naqshbandiylik haqida yoziladigan barcha kitoblarni o‘z nazoratidan o‘tkazgan. Sinchiklab o‘rganib chiqib, kitob qilish uchun turli mualliflarni jalb etgan.

Alouddin Attorning – Xoja Hasan Attor (vaf. 826/1423 (*Abdurahmon* Jomiy, 258[a]-sahifa), Xoja Abdulloh Imom Isfahoniy, Shayx Umar Moturidiy,

Mavlono Ahmad Maska, Darvesh Ahmad Samarqandiy, Sayid Sharif Jurjoniy (740/1339-818/1415 (Lohuriy, 453[a] varaq), Mavlono Nizomiddin Xomush (vaf. 1450), Shayx Abdurazzoq, Mavlono Abusaid Balxiy, Mavlono Ya'qub Charxiy kabi shogirdlari bo'lgan.

Ya'qub Charxiy ibn Usmon ibn Mahmud G'aznaviy (taxminan 1363-yilda) G'azna (hozirgi Afg'oniston) yaqinidagi Charx qishlog'ida tavallud topgan. U 1380-yilda Buxoro madrasalaridan birida tahsil olgan va Bahouddin Naqshbandga shogird tushgan. Keyinchalik, Xoja Alouddin Attorning xizmatiga kirgan.

Mavlono Ya'qub Charxiy tasavvuf, fiqh, Qur'on tafsiriga doir o'ndan ortiq ilmiy asarlar yozib qoldirgan. Ushbu asarlardan yettitasi bugungi kunda ma'lumdir. Jumladan, "Tafsiri Charxiy" ("Charxiyning Qur'onga qilgan tafsiri"), "Risolai unsiya" ("Do'stlik haqida risola"), "Ar-risolat ul-abdoliya" ("Abdollar haqida risola"), "Risola dar siyrati Mustafaviya va tariqai mustaqimiya" ("Mustafoning siyratlari va to'g'ri yo'llar haqida risola"), "Risola dar ilmi faroyiz" ("Farz narsalar haqida risola"), "Risola dar aqoid" ("Aqoid ilmi haqida risola"), "Risola fil hisob val faroyiz" ("Hisob va meros taqsimi haqida risola"), "Muxtasar dar bayoni silsilai naqshbandiya" ("Naqshbandiya suluki haqida qisqacha risola"), "Sharhi asmoulloh" ("Alloh ismlarining sharhi haqida risola"), "Sharhi nuvadu nuh nom" ("Allohning to'qson to'qqiz ismining sharhi"), "Faroizi manzuma" ("Nazmiy farz narsalar haqida") kabi nodir asarlar muallifi hisoblanadi.

Ya'qub Charxiy 1447-yilda Chag'oniyon viloyatining Halg'atavda vafot etgan. Demak, 1400-1447-yillar davomida naqshbandiylik tariqatini boshqargan Ya'qub Charxiy Movarounnahr va Xurosonda tasavvufning hayotiy yo'nalishlaridan bo'lmish naqshbandiya tariqati ta'limotining keng yoyilishiga ulkan hissa qo'shgan allomadir. Shu o'rinda Alouddin Attorning shogirdi ekani, uning qo'lida 10 yildan ortiq vaqt davomida tahsil olib, tariqatda ma'naviy kamol topgani keyingi faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani tushuniladi.

Xoja Muhammad Porso nomi bilan mashhur bo'lgan Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hofiz Buxoriy (746-822/1345-1420) bo'lib, Markaziy Osiyo tasavvuf ilmi rivojining reformatorlaridan (Муминов Аширбек, Паул Юрген, 2001:72-73) biri bo'lgan. Uning hayoti va ilmiy ijodi to'g'risidagi ma'lumotlar hanuzgacha to'liq qamrovda o'rganilmagan.

Xoja Muhammad Porso Movarounnahrning ulug' olimlaridan, naqshbandiya tariqatining mashhur shayxi va Xoja Bahouddin Naqshbandning yaqin shogirdi. Porso (dindor) laqabini unga ustozi Bahouddin Naqshband bergan.

Allomaning yigirmaga yaqin asarlari mavjud. Ular orasida "Risolai qudsiya" ("Xoja Bahouddinning qudsiy kalimalari haqidagi risola"), "Avsofi qudsiyai mashoyixi tariqat" ("Tariqat mashoyixlarining qudsiy kalimalari"), "Risola dar odobi murid" ("Murid odoblari haqida risola"), "E'tiqodot" ("E'tiqod haqida risola"), "Risolai mahbubiya" ("Do'stlik haqida risola"), "Risolai kashfiya" ("Karomatlar haqida risola"), "Muxtasari tarixi Makka" ("Makka shahrining qisqacha tarixi"), "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband" ("Xoja Bahouddin Naqshband maqomoti"), "Haftodu du firqa" ("Yetmish ikki firqa") kabi asarlar qatorida "Maqomoti Xoja Alouddin Attor" ("Alouddin Attor maqomoti") asarini ham bitgan. Xoja Muhammad Porso ilmiy merosi bilan naqshbandiyaning yirik vakili sifatida, tariqatni davom ettirgan hamda rivojlantirgan.

Xoja Ubaydulloh Mahmud xoja o'g'li – Ahror Valiy nomi bilan mashhur bo'lib, 806/1404-yil ramazon/mart oyida Shosh/Toshkentning Bog'istonida dunyoga kelgan (Мухамедов Н., 2014:54-57). Otasi Xoja Mahmud va bobolari ma'rifatli kishilar bo'lib, dehqonchilik va tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Ona tarafidan mashhur Shayx Xovandi Tohurga borib ulanadi.

Xoja Ubaydulloh bolaligidan ilmga chanqoqligi sabab bo'lgan ko'rinadi 22 yoshida tog'asi xoja Ibrohim Shoshiy uni tahsil olish uchun Samarqandga olib boradi (Mukhamedov, N., & Alidjanova, L., 2020: 74-76). U yerda Mavlono Qutbiddin Sadrning madrasasida tahsil oladi. 1428-yilda Hirot shahrida Sayid Qosim Tabriziy (Qosim Anvor)ning dargohida tahsilni davom ettiradi. Shu tariqa, Chag'oniyon mavzeida yashovchi naqshbandiya tariqati murshidlaridan biri Mavlono Yaqubi Charxiy huzuriga borib tasavvuf sir-asrorlarini qunt bilan o'rganadi. Bu haqda Alisher Navoiy o'zining "Nasoyimul muhabbat" asarida "Xoja Ubaydulloh Xuroson mashoyixlari Hazrati Mir Sayyid Qosim Anvor, shayx Bahouddin Umar, shayx Zayniddin Xavofiy, Mavlono Muhammad Asad, Mavlono Sa'duddin Qoshg'ariylar, Movarounnahr mashoyixlaridan Xoja Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr, Mavlono Nizomiddin Xomush suhbatda bo'lib, Mavlono Ya'qubi Charxiydan" irshod va tarbiya topganligi bayon etilgan.

Ya'qub Charxiydan ta'lim olgan Xoja Ahror Hirotga va u yerda bir yil yashab qoladi. So'ngra 29 yoshida (Karimov E., 2003:24) Toshkentga qaytib, toat-ibodat va dehqonchilik bilan mashg'ul bo'ladi. Xalq orasida ancha tanilgandan so'ng, 1450-yildan keyin (Kattayev K., 2017:189) Samarqandga keladi.

Xoja Ahrori Valiy odamlarni rom qiluvchi nutq va rivoyatlarga, ilmi fiqh va ruboiyotlarga, Qur'on tafsiri va hadislarga shu darajada boy bo'lgan. Uning hayot yo'li va fazilatini bayon qiluvchi ko'pgina tarixiy

asarlar orasida eng birinchilardan bo‘lib yozilgan “Masmuot” (Eshitilgan) asari ul zotning kuyovi va izdoshi Mir Abdulavval Nishopuriy tomonidan XV asr oxirlarida bitilgan. Unda Xoja Ahrorning yurish-turishi, fazilati, so‘fiylik dunyoqarashi haqida so‘z borgan. Kitobda Muhammad sollallohu alayhi vasallam va chahoryorlardan tortib, Xoja Ahrori Valiy yashagan davrgacha yetib kelgan tasavvuf silsilasi sulukning eng ulug‘ namoyandalari faoliyati hamda Xojaning zamondoshlari bo‘lgan temuriylar sulolasi bilan munosabati bayon qilingan.

Xoja Ubaydulloh 89 yil hayot kechirib, 895/1489-yil rabiul avval oyining yigirma to‘qqizinchisi shanba kechasida, xufton namozidan keyin vafot etgan. Ertasi kuni peshin namozidan keyin dafn etilgan.

Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy naqshbandiya tariqatining eng buyuk murshidlaridan biri ekanligi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotda katta iz qoldirib, o‘z davrida shuhrati dunyo mamlakatlari bo‘ylab mashhur bo‘lgan (Mukhamedov N., 2023: 378-383). Uning tasavvuf tarixidagi buyuk xizmatlaridan biri naqshbandiya silsilasi islom olamidagi eng ulug‘ silsilalardan biriga aylanishidir. U Valiy tasavvuf tarixida birinchi bo‘lib xalq ravnaqi yo‘lida tariqatni siyosatga, podshohlarga ta’sir ko‘rsatuvchi amaliyotga aylantirgan.

Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy Mavlono Sulton, Xoja Muhammad Yahyo, Burhoniddin Xatloniy, Xoja Muhammad Ubaydulloh, Sayfiddin, Mavlono shayx, Ismoil Hiraviy, Ismoil Qamariy, Nosriddin O‘troriy, Mavlono Ja’far, Lutfulloh, Xoja Ali Toshkandiy, Nuriddin Toshkandiy, Mahmud Xoja Turkistoniy, Mavlono O‘troriy, Shayx Habib Buxoriy, Sayyid Hasan, Muhammad Qozi, Muhammad Qosim (Mirzo Junaydulloh Hoziq, 3^{b}-4^{a}-sahifa), Xoja Muhammad Zohid kabi shogirdlarni tarbiya etgan. Uning muridlari Movarounnahr va Xuroson bo‘ylab naqshbandiya ta’limotini olib borgan. Yangidan yangi markazlarni shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Mavlono Muhammad Qozining to‘liq ismi Muhammad ibn Burhoniddin Miskiniy Samarqandiydir. Uning otasi Burhoniddin Qozi Imoduddinning yaqinlaridan bo‘lgani uchun ham o‘g‘liga “Qozi” nisbasini bergan. U dastlabki bilimlarni mukammal egallaganidan so‘ng, tasavvuf ilmiga ham mayli kuchayib, Xurosonga otlanadi. U Xoja Ahror bilan 885/1480-yilda Samarqandda Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy bilan uchrashadi. O‘n ikki yil xizmat qiladi. Mavlono Muhammad Qozi 921/1515-yilda vafot etgach, piri Xoja Ahror Valiyning yonida dafn etiladi.

Sayid Ahmad xoja (Mahdumi A’zam Dahbediy) Kosoniy Mavlono Mir Sayid Ali qoshida ilmi sarfu nahv (morfologiya va sintaksis)ni qunt bilan o‘rganadi. Shundan so‘ng, tasavvuf ilmiga rag‘bat sezib, ustozi Mavlono Mir Sayid Alining maslahati bilan Xoja Ahror Valiyning Toshkentda yashayotgan eng yaqin shogird va xalifasi Mavlono Muhammad Qozi huzuriga borib, qo‘l beradi hamda eng sevikli shogirdiga aylanadi.

Maxdumi A’zam Dahbediy va (uning shogirdi) Mavlono Xurd azizonning (vaf. 980/1572) shogirdi bo‘lgan Muhammad Shoh (Mulla Poyanda) asli Axsikatda dunyoga kelgan. To‘liq ismi Muhammad ibn Mir Darvesh Muhammad ibn Mir Obid Husayn Axsikatiy Abbosiydir (Kattayev K. 1994:30). Toshkent, Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olgan.

Boqiy Muhammad Shikoriy Fanoiy Buxoriyning “Maqomotul orifin” (“Ma’rifat egalarining maqomoti”) asarida ustozi Mulla Poyandaning tarjimayi holi yoritilgan. Mulla Poyanda Axsikatiy Buxoriy Fayzobodda 1596-yilda xonaqoh qurdirgan. Buxoroning Samarqand ko‘chasida masjid, ikki qavatli maktab, gumbazli tahoratxona ham qurdirgan. Bu obidaning nomi Shoh Axsi jomesidir. U ustozi Maxdumi A’zam Dahbediyning o‘g‘li Xoja Abduxoliq bilan bir (1010/1601 (Roqimiy Samarqandiy, 1998:144) yilda vafot etgan.

Buxoro shahri ichidagi Shoh Axsi masjidi atroflari shu nom bilan atalgan. Fayzoboddagi xonaqoh ham Shoh Axsi xonaqohi deyilgan. Xonaqohning kunchiqar tomonida qabristonda Mulla Poyanda dafn etilgan.

Uning Mavlono Mastiy, Oxund Kamoliddin Vaganzaviy (vaf. 1652), Muhammad Qosim Buxoriy (vaf. 1660), Shoh Muhammad Sarrof, Amir Avaz, Mir Rahmatulloh, Muhammad Yusuf, Qozi Mahmud, Xoja Muhammad Shirin,Mirzo Bargiy, Mavlono Solih, Darvesh Muhammad Mirobodiy, Xoja Muqim, Shayx Muzaffar, Shayx Siroj, Mirzojon qori, Xoja Hamdiy Romitaniy, Mavlono Muhammad Kalon Novkadiy Toshkandiy, Mavlono Ibrohim Kalon, Nazar Toshkandiy, Mirak Sepuloniy, Xoja Burhoniddin Zandanaviy, Muhammad Maksoniy, Abdurahim qori, Avaz Nasafiy, Mir Hoshim Manoriy, Sayid Jorulloh Karminiy, Shoh Muhammad Kotib, Hoshim Devona, Amir Hoshim Tabib, Hoji Muhammad, Boltavoy Miyonkoliy, Muhammad Solih Miyonkoliy, Solih Xaraqoniy, Boqiy Masnaviyxon kabi shogirdlarni tarbiya qilgan.

Maxdumi A’zam Dahbediy avlodi G‘oziy Umarxon xoja Dahbediy ham (1295/1877-yili vafot etganda) Shohi Axsi xonaqohida dafn etilgan.

Naqshbandiya tariqati namoyandalaridan biri Avliyo Xoja (qabri Samarqand shahrining Eski qalandarxona mahallasi, Ali Qushchi ko‘chasida joylashgan) haqida Samarqand qozi kaloni Abu Tohir xoja “Samariya” asarida bunday yozadi: “Hazrat Xoja

Avliyo mozori. Hazrat Xoja Ahror, sirlari muqaddas bo‘lsin, madrasasiga boriladigan katta yo‘lning kunchiqarida, shahar ichida, xonaqoh mahallasidadir. Xoja Avliyo dahbedlik Mahdumi A’zam naslidan bo‘lib, shayxlikda Bobo Zaynuddin Hindiyga ham muridligi bor edi... Xoja Avliyo mozorining shimol tomonida o‘zga bir mozor bordir. Lekin kimniki ekanligi belgilik emas. Bu kishining mozori nurli va serbarakotdir” (Abu Tohirxoja, 1991:41), deya keltirgan. Xoja Avliyo Mahdumi A’zam avlodidan bo‘lib, Avliyo xojaning otasi Majnun xoja, u kishining otasi Xoja Hoshim Dahbediy (1562-1638), u kishining otasi Muhammad Amin (Xoja Kalon) (1514-1596), u kishining otasi Sayyid Ahmad xoja Kosoniydir. Xoja Avliyo XVII asrda yashab o‘tgan. Uning bobosi Xoja Hoshim 1638-yilda vafot etgan va otasi Xoja Majnun XVI asr oxirlari XVII asr o‘rtalarida yashagan. O‘g‘li Xoja Shamsiddin esa 1127/1714-yilda vafot etgan.

Alouddin Muhammad Buxoriy tasavvuf tarixida birgina tariqat bilan cheklanib qolmagan. Uning naqshbandiya silsilasida ham ijozati bo‘lgan. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamdan Abu Bakr Siddiq orqali Abul Hasan Xaraqoniyga yetgan silsilai ma’naviy, undan Shayx Abdulloh Ansoriyga, undan Xoja Abu Alii Farmadiyga, undan Muhammad G‘azzoliyga, undan Xoja Yusuf Hamadoniyga yetgan. Undan Bahouddin Naqshband orqali Ahmad Sirhindiyga yetib kelgan. Undan Miyon Ma’sum Valiyga, undan Xoja Muhammad Siddiq Samarqandiy (Mulla Xoja Valiy)ga, undan Shayx Xoja Nuriddin (Mavlono Nafas Hisoriy)ga, undan Sayid Amir Zakariyo (xalifa Vojkatiy)ga, undan Sayid Amir Olimga, undan xalifa Ashur Muhammad Todaniyga, undan Sayid Mir Jaloliddin Muhammadga (Alouddun Buxoriy, – 135[a]-136[a]-sahifa), undan Sayid Alouddin Muhammad Husayniy Buxoriyga yetib kelgan.

Kubroviya va naqshbandiya tariqati vakili Alouddin Muhammad Buxoriy o‘zining nasab shajarasini quyidagi tartibda: Sayid Mir Jaloliddin ibn Sayid Mir Olim bin Sayid Amir Zakariyo bin Sayid Amir Ne’matulloh bin Sayid Amir Rahmatulloh bin Sayid Amir Bahodir bin Sayid Amir Iyso bin Sayid Amir Abdulboriy bin Sayid Amir Shodi bin Sayid Amir Hoji (Kirmoniy) [*Qabri Hisori Shodmon tumanining Miron mahallasida joylashgan*] bin Sayid Amir Yusuf bin Sayid Amir Baraka bin Sayid Amir Ahmad bin sohibul ansob Sayid Amir Ali Hamadoniy (“Avrodi fathiya”, “Zaxiratul muluk” va tavhidga oid boshqa asarlar muallifi) ibn Shahobiddin Muhammad Yusuf ibn Sayid Amir Sharaf ibn Muhammad ibn Ja’far ibn Abdulloh ibn Husayn bin Fotimai Zahro binti Rasulullo sollallohu alayhi vasallamga yetkazgan.

Alouddin Muhammadning naqshbandiya silsilasi ham otasi Jaloliddin, bobosi Zakariyo, katta bobosi Olim orqali kelgan. Yana Muhammad Siddiq orqali Muhammad Miyon Ma’sumga ulangan [*Nosiriddin Buxoriyning “Tuhfatuz zoyirin” asarida Muhammad Siddiq ustozi Musoxonxoja Dahbediy orqali Ahmad Sirhindiyga yetishi va Miyon Ma’sum orqali ulanishi ham aytilgan*]. Muhammad Siddiq boshqa manbalarda Musoxonxoja Dahbediyning shogirdi sifatida keltirilgan. Demak, Muhammad Siddiq Samarqandiy naqshbandiya silsilasi Musoxonxoja Dahbediy (va uning ustozlari) orqali Ahmad Sirhindiyga ulangani manbalarda tasdig‘ini topgan. Alouddin Muhammad va Nosiriddin Buxoriy bergan ma’lumotlarda Muhammad Siddiq Miyon Ma’sum orqali Ahmad Sirhindiyga bog‘langan. Demak, Muhammad Siddiq Hindistonda bo‘lgan vaqtda Muhammad Miyon Ma’sumdan ham ijozat olgan. Shuning barobarida keyinchalik Musoxonxoja Dahbediyga shogird bo‘lib Movarounnahrga kelishi va ustozidan keyin silsilani davom ettirgan. Manbalarda asosan shu tarmoq qayd etilgan.

Shayx Xoja Nuriddin – Mavlono Nafas Hisoriy nomi mashhur bo‘lib, asli Hisori Shodmonning Ko‘lobidan. Ilm olish maqsadida Buxoroga kelgan. Muhammad Siddiqdan naqshbandiya ta’limini Samarqandda olgan. Umrining oxirini Buxoroda o‘tkazib shu yerda vafot etgan.

NATIJA

“Mukoshiful asror”da Muhammad Husayn Buxoriyning Zarafshon vohasidan bo‘lgan oltmishdan ortiq shogirdlari haqida ma’lumot keltirilgan. Domla Ashur Muhammad Miyonkoliy shom vaqti (Jaloliddin Buxoriy, 139[a]-sahifa) vafot etgani, Muhammad Sayidquli Miyonkoliy ona tomondan Xalifa Husayn avlodidan. Mulla Ollohyor Kattaqo‘rg‘oniy – kamolotga yetgan fazilatli kishilardan edi. Zavq va hol sohibi bo‘lgan ((Jaloliddin Buxoriy, 138[a]-sahifa). Ayrim tadqiqotlarda So‘fi Ollohyorni “Kattaqo‘rg‘oniy” deb berilgani kuzatish mumkin. Ammo biror manbada bu nisba bilan tilga olinmagan. Demak, So‘fi Ollohyor yashagan davrda Miyonkol nomi bilan yuritilgan. Shu sabab izlanishlarda ham Miyonkoliy deb keltirilgan. Mulla Ollohyor Kattaqo‘rg‘oniy XIX asrda yashab o‘tgan.

Domla Mir Shoh Samarqandiy tasavvuf ta’limini Samarqandda olib, keyin Toshkentga borib tariqatni yuritadi. O‘sha yerda vafot etadi. Domla Rahimberdi Miyonkoliy – Buxoroda ustozi dargohida xizmatda bo‘lgan. Asosan e’tikof mutasaddisi bo‘lgan ((Jaloliddin Buxoriy, 121[a]-sahifa). Demak, tariqat murshidi shogirdlarini tarbiyalashda, ularni turli vazifalarga taqsimot qilingan. Natijada shogirdlar muayyan

vazifalarni sidqidildan ado etish asnosida, tariqat sir-asrorlarini o‘rganib borgan. Domla Muhammad Qosim Samarqandiy –xonaqohda imom xatib va kitobxonlik ((Jaloliddin Buxoriy, 120[b]-sahifa) xizmatida faoliyat olib borgan.

Muhammad Husayn shogirdlari qatorida turli lavozimlarda faoliyat olib borgan davlat arboblari ham bo‘lgan. Domla Muhammad Sharif Buxoriy – Buxoroda qozi askariy lavozimida ishlagan. Niyozbek, To‘ra xoja Naqib, Toshbek Buxoriy, Erdona Devonbegi, Qoribek Buxoriy, Abdurahmon bek Afg‘oniy, Abdujabbor Miroxur, Xudoyor To‘qsabo Buxoriy ((Jaloliddin Buxoriy, 113[b]-sahifa) Buxoro amirligining turli lavozimlarida ishlash asnosida, tariqatda ham nasibasi bo‘lgan.

Abdurahmon bek ham Buxoro hukmdori bilan Xorazm tomonga yurishda qatnashgan ((Jaloliddin Buxoriy, 112[b] varaq). Aflotun Buxoriy – Buxoro hukmdorining “A’lam” (Bayroq)dori bo‘lgan. U hukmdor bilan Qizilbosh hududiga qirq kechayu-kunduz birga bo‘lib, doim toat ibodatda bardavom bo‘lgan. Domla Hakimbek Buxoriy – Buxoro hukmdorining yaqinlaridan bo‘lgan. U Chelak hududlarida Beklik lavozimida xizmat qilgan. Keyinchalik Muhammad Husayndan (Jaloliddin Buxoriy, 112[a]-sahifa) tariqat sabog‘ini oladi.

Muhammad Yusuf xoja va Muhammad Yunus xoja Vobkandiy Mir Xurd va Mir Kalon mozorining mutavallisi bo‘lgan. Ibrohim xoja Buxoriy – Ziyouddin qal’asiga qarashli Sultonobodda yashab istiqomat qilgan. Eshon Shokir xoja Sug‘onchiy – Muftiy ((Jaloliddin Buxoriy, 108[b]-sahifa) lavozimida faoliyat olib borgan. Domla Rahmonberdi Buxoriy aqliy va naqliy ilmda dono bo‘lgan.

Abdurahim xoja Ofarinkentiy – Shayx Xudoydod Valiy avlodidan ((Jaloliddin Buxoriy, 108[a] varaq). U shariat va tariqatga qat’iy amal qilib, Kalomullohi sharifni kitobat qilish bilan maxsus shug‘ullangan. Ayub xoja Miyonkoliy tariqat ta’limini olgach, ustozining ko‘rsatmasi bilan Xo‘qandga borib, silsilani davom ettirgan va o‘sha yerda vafot etgan. Uning o‘g‘li Yahyo xoja otasining vafotidan so‘ng, Muhammad Husaynning xizmatiga keladi. Haj safariga borib kelgach (Jaloliddin Buxoriy, 100[a-b]-sahifa), silsilani davom ettirgan. Eshon Abdi xoja Miyonkoliy – dastlab Musoxon xojaga, uning vafotidan keyin Xoja Kalon va undan keyin Muhammad Husaynga shogird ((Jaloliddin Buxoriy, 100[a]-sahifa) bo‘lgan. Eshonxoja Dahbediy – Maxdumi A’zam Dahbediyning Xoja Kalon ismli o‘g‘lining avlodidan. Eshon Muhammad Tohir Dahbediy – Maxdumi A’zam Dahbediy Xoja Kalon ismli o‘g‘lining avlodidan bo‘lib, sahovatpesha insonlardan bo‘lgan. Muhammad O‘roq xoja Dahbediy – Maxdumi A’zam Dahbediy avlod bo‘lib, zamonasining fozil kishilaridan biri bo‘lgan. Ko‘p yillar xonaqohda imom xatiblik (Jaloliddin Buxoriy, 98[a-b]-sahifa) qilgan. Muhammad Sharif xoja Buxoriy – Atoulloh xoja shayxulislom Buxoriyning o‘g‘li (Jaloliddin Buxoriy, 98[a]-sahifa) bo‘lib, bobosi Eshon Hodi xojadir. Dahbediylar silsilani Chust hududlarida davom ettirgan Mavlono Lutfulloh Chustiyning avlodidan bo‘lgan Abduroziq xoja va Abdurazzoq xoja (Jaloliddin Buxoriy, 106[b]-sahifa) bobokaloni ta’lim olgan Dahbedda mazkur silsilaga bog‘langan.

Aziz xoja Kattaqo‘rg‘oniy, Abdulloh xoja Vobkandiy, Aziz xoja Jo‘shiy, Qosim xoja Ofarinkentiy, Eshon Hidoyatulloh xoja Sug‘onchiy, Domla Iyoz Buxoriy, Domla Iyso Buxoriy, Eshon Aziz xoja Ofarinkentiy, Shoh Rustam xoja Samarqandiy, G‘iyosiddin xoja Samarqandiy, Muhammad Solih xoja Karminagiy, Abdulhafiz xoja Karminagiy, Xoja Kalon xoja Buxoriy, Hasan xoja Buxoriy, Domla Mir Komil G‘ulakandoziy kabi shogirdlari ham o‘z davrida mashhur tasavvuf namoyandalaridan biri bo‘lgani ta’kidlangan.

Muhammad Jaloliddin “Mukoshiful asror” da (Jaloliddin Buxoriy, 34[a-b]-sahifa) Miyonkoliy, Karminagiy, Kattaqo‘rg‘oniy, Metaniy, Samarqandiy, G‘ijduvoniy, Buxoriy, Ofarinkentiy, Dahbediy, Vobkandiy, Sug‘onchiy, Sarmejiy nisbalik 60 dan ortiq tariqat namoyandasi Zarafshon vohasi hududi nomi bilan bog‘liq ekani aniqlandi.

Domla Mavlono Mirmuhammad Ibrohim xoja – tafsir va hadis ilmida mohir bo‘lgan, aqliy va naqliyda zamonasining nodir olimlaridan ((Jaloliddin Buxoriy, 117[a]-sahifa) bo‘lgan. Mavlono Nuriddin Mahjuriyning “Tazkira”sida xalifa Mavlono Mirmuhammad Ibrohim xoja hayoti va faoliyatiga bag‘ishlab yozilgan. Mazkur asarning “Ta’rixi qutbuz zamon va g‘avsi davron Hazrat Eshon xalifa Ibrohim (rahmatullohi alayh)” bo‘limida bunday deydi: “Obid, zohid, olimlarning yo‘lboshlovchisi, qutbi olam, soliklarning maslagi, naqshbandiya suluki muqtadosi, asli shahzodalardan bo‘lib, Qobul, Balx, Hirot va Badaxshon (Mavlono Nuriddin Mahjuriy, 145[b]-sahifa) shaharlaridan, Samarqandga kelganligi aytib o‘tilgan. Uning ustozi “Bahouddin Naqshband tariqatidagi ustozi Mavlono Husayn” ekanligini nazmda ta’riflab o‘tgan.

Ko‘pgina shayxu buzurglar qatorida bo‘lgan Mavlono Mirmuhammad Ibrohim xojaning mashhur to‘rt xalifa-shogirdlari: Muhammad Amin xoja Dahbediy, Abdumalik xoja G‘aziragiy, Eshoni Valixon Urgutiy va So‘fi xoja (Irshodnoma, 1-sahifa).

Mavlono Mirmuhammad Ibrohim xojaning birinchi xalaful-xulafosi Muhammad Aminxoja bo‘lib, uning

shogirdi Eshoni Kattaxonoja Dahbediy (1868-1969) (Kattayev K., 2017:188) edi.

Mahjuriy Muhammad Amin xoja (laqabi Eshon Boboxon) haqida quyidagi misralarni bitgan:

"Bir olim zotning nomlarin keltirsak,
Ta'rixi Muhammad Amin tarjimon.
Aytinglarki ta'rixi zayg'i basar,
Yana o'ttizni bu kalomga qo'shib.
Mo zog' so'zi birla ishorat bo'ldi zayg'i o',
Nazar solgin suxanning boshi ba sardor bo'ldi.
Valekin man hasta mo zog' ro,
Al-basar birlan tarixin qildi duo.
Bilmasdim garchi xush nazar solmasam,
Yaqindan ta'rixi Muhammad Amin.
San bilgin buni bil mo zog' ro,
Ba al-basar torixi erur namo.
U misli oy kabi Payg'ambar avlodidur,
Mo zog' ta'rixi ham avlo erur".

Bu misralarda yashirin bo'lgan tarix sanasi "zayg'i basar- رصب غيز" so'ziga o'ttizni qo'shsak, ya'ni 1309+30=1339 hosil bo'ladi. Demak, Muhammad Amin xoja Dahbediy [*Dahbediy avlodlar orasida Muhammad Amin ismi ko'p uchraydi. Adashtirilmasin*] 1339/1920-yilda vafot etgan. U Qusam ibn Abbos (Shohizinda) mozorida (Mavlono Nuriddin Mahjuriy, 130[b]-sahifa) dafn etilgan.

Eshoni Valixon Urgutiy Chorchinor mavzeida faoliyat ko'rsatib ko'plab shogirdlarni tarbiyalagan. Undan keyin farzandi va shogirdi Eshoni Muhiddinxon Urgutiy silsilani davom ettirgan.

Sayyid Muhammad Yo'ldosh xalifa 1860-yili Kattaqo'rg'on tuman Jizmonsoyning Dara qishlog'ida tavallud topgan. O'n yetti yoshida ustozi Muhiddinxon Urgutiy dargohiga borib, yigirma yetti yil ta'lim oladi. 1905-yillar atrofida piridan ijozat olgach, umrining oxiriga qadar tariqat silsilasini yuritgan. 1947-yil vafot etgan. Muhammad Yo'ldosh "Ibn Davlat" taxallusi bilan ijod qilib 1934-1944-yillarda yozgan "Devoni" (Sayyid Muhammad Davlat, 2022) meros qolgan.

XULOSA

Zarafshon vohasida faoliyat olib borgan tasavvuf namoyandalari nasabi Abu Bakr, Umar, Usmon yoki Aliga ulanishi kuzatiladi. Yoki mashhur ulamo yoki tariqat murshidiga yetadi. Jumladan, Abu Bakr Siddiqning avlodi – Xoja Ahror Valiy, Olim shayx Azizon; Umar ibn Xattobning avlodi – Miyon Fazl Ahmad, Miyon Fazl Muhammadxon; Ali ibn Abu Tolibning avlodi – Bahouddin Naqshband, Alouddin Attor, Ya'qub Charxiy, Hoji Habibulloh Buxoriy; Imom Molikning avlodi – Abduxoliq G'ijduvoniy; Mavlono Orif Revgariyning avlodi – Xoja Ismatulloh.

Bu davrda naqshbandiylikning So'fi Ollohyor va Musoxonxoja Dahbediy tarmog'idagi pirlar faoliyati bevosita Markaziy Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy sohalarida muhim o'rin tutganini ko'rish mumkin. Markaziy Osiyoda naqshbandiya tariqati pirlari faoliyati bevosita siyosiy jarayonlarda ham namoyon bo'lgani yoki o'sha davr hukmdorlari bu silsila pirlariga munosabati yaqinlashuviga hamda o'zaro manfaatli aloqalar uzviyligi ta'minlanganini ko'rish mumkin. Yana silsila vakillari orasida turli tabaqaga mansub kishilar borligi tariqat faoliyati naqadar xalqchil ekanini namoyon etadi.

Muhammad Jaloliddin "Mukoshiful asror" asari orqali Miyonkoliy, Karminagiy, Kattaqo'rg'oniy, Metaniy, Samarqandiy, G'ijduvoniy, Buxoriy, Ofarinkentiy, Dahbediy, Vobkandiy, Sug'onchiy, Sarmejiy nisbalik 60 dan ortiq tariqat namoyandasi Zarafshon vohasi bilan bevosita bog'liq ekani aniqlandi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдураҳмон Жомий. *Нафаҳотул унс*. ИБХИТМ қўлёзмалар фонди. Инв №545.
2. Алоуддун Муҳаммад Бухорий. *Ҳужжатул комилин фий атворус соликин.* ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди инв № 4400/II.
3. Абу Тоҳирхожа. (1991). *Самария.* – Тошкент : Камалак.
4. Жалолиддин Бухорий. *Мукошифул асрор.* ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди. Инв: № 2085.
5. *Иршоднома*. Қўлёзма. Форсча. ХИХ аср. Мавлоно Иброҳим хожа авлоди Саида Қаюмова хонадонида сақланади.
6. Каттаев К. (1994). *Махдуми А'зам ва Даҳбед.* – Самарқанд : Сўғдиёна.
7. Каттаев К. (2016). *Махдуми А'зам Даҳбедий тарихи ва мукаммал даҳбедийлар тариқати.* – Тошкент : Машҳур-Пресс.
8. Каттаев К. (2017). *Тасаввуф алломалари.* – Тошкент : Ғафур Ғулом нашриёти.
9. Каримов Э. (2003). *Хўжа Аҳрор (ҳаёти ва фаолияти).* – Тошкент : Маънавият.
10. Мавлоно Муҳаммад Маҳжурий. *Тазкираи олимони Самарқанд.* Қўлёзма. Тожикча. – Самарқанд Давлат музейи қўлёзмалар фонди. Инв. № 5653/2.
11. Мирзо Жунадуллоҳ Ҳозиқ. (1326/1906). *Куллиёт.* Қўлёзма, форс тилида ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди. Инв № 3021.
12. Муминов Аширбек, Паул Юрген. (2001). Мухаммад Парса. *Ислам на территории бывшей Российской имерии. Энциклопедичемкий словарь. Выпуск 3*.

13. Мухамедов Н.А. (2014) Идеи толерантности и гуманизма в деятельности учёных суфиев оазиса Ташкент. // The culture of tolerance in the context of globalization: methodology of research, reality and prospect http://sociosphera.com/ files/ conference/2014/k-05_13_14.pdf#page=54-57 (in Russ).
14. Mukhamedov, N., & Alidjanova, L. (2020). The role of Khodja Akhrar in socialspiritual Life of Central Asia. // *American Journal of Research_https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/06/2020_5_6 AJR_10. pdf.* – P.74-76.
15. Mukhamedov, N. (2023). Khoja Ahrar – peace and consent between people. *ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (117),* 378-383. Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS.
16. Носириддин Бухорий. (1324/1916). *Туҳфатуз зойирин.* – Бухоро.
17. Наврўзова Г. (2019). *Баҳоуддин Нақшбанд: манбалар таҳлили.* – Тошкент : Сано-стандарт.
18. *Нақшбандия тариқатига оид қўлёзмалар фиҳристи.* (1993). – Тошкент : Мовароуннаҳр.
19. Роқимий Самарқандий. (1998). *Тарихи томм.* – Тошкент : Маънавият.
20. Саййид Муҳаммад Давлат. (2022). *Девон.* – Самарқанд : Маҳорат.

REFERENCES

1. Abdurahmon Jomiy. *Nafahotul uns.* IBXITM qo‘lyozmalar fondi inv № 545.
2. Alouddun Muhammad Buxoriy. *Hujjatul komilin fiy atvorus solikin.* O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi. Inv № 4400/II.
3. Abu Tohirxoja. (1991). *Samariya.* -Toshkent: Kamalak.
4. Jaloliddin Buxoriy. *Mukoshiful asror.* O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi. Inv: № 2085.
5. *Irshodnoma*. Qo‘lyozma. Forscha. XIX asr. Mavlono Ibrohim xoja avlodi Saida Qayumova xonadonida saqlanadi.
6. Kattayev K. (1994). *Maxdumi A’zam va Dahbed.* Samarqand: So‘g‘diyona.
7. Kattayev K. (2016). *Maxdumi A’zam Dahbediy tarixi va mukammal dahbediylar tariqati.* – Toshkent : Mashhur-Press.
8. Kattayev K. (2017). *Tasavvuf allomalari.* – Toshkent : G‘afur G‘ulom nashriyoti.
9. Karimov E. (2003). *Xo‘ja Ahror (hayoti va faoliyati).* – Toshkent : Ma’naviyat.
10. Mavlono Muhammad Mahjuriy. *Tazkirai olimoni Samarqand.* Qo‘lyozma. Tojikcha. Samarqand Davlat muzeyi qo‘lyozmalar fondi. Inv. № 5653/2.
11. Mirzo Junadulloh Hoziq. (1326/1906). *Kulliyot.* Qo‘lyozma, fors tilida O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi. Inv № 3021.
12. Muminov Ashirbek, Paul Yurgen. (2001). Muxammad Parsa. *Islam na territorii bыvshey Rossiyskoy imerii. / Ensiklopedichemkiy slovar. Vypusk 3*.
13. Мухамедов Н.А. (2014). Идеи толерантности и гуманизма в деятельности учёных суфиев оазиса Ташкент. The culture of tolerance in the context of globalization: methodology of research, reality and prospect http://sociosphera.com/ files/ conference/2014/k-05_13_14.pdf#page=54-57 (in Russ).
14. Mukhamedov, N., & Alidjanova, L. (2020). The role of Khodja Akhrar in socialspiritual Life of Central Asia. // *American Journal of Research_https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/06/2020_5_6 AJR_10. pdf.* P.74-76.
15. Mukhamedov, N. (2023). Khoja Ahrar - peace and consent between people. *ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (117),* 378-383. Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS.
16. Nosiriddin Buxoriy. (1324/1916). *Tuhfatuz zoyirin.* – Buxoro.
17. Navro‘zova G. (2019). *Bahouddin Naqshband: manbalar tahlili.* Toshkent : Sano-standart.
18. *Naqshbandiya tariqatiga oid qo‘lyozmalar fihristi.* (1993). -Toshkent: Movarounnahr.
19. Roqimiy Samarqandiy. (1998). *Tarixi tomm.* -Toshkent: Ma’naviyat.
20. Sayyid Muhammad Davlat. (2022). *Devon.* -Samarqand: Mahorat.